

Yuridik va jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarni restrukturizatsiya qilish (kredit shartnomalari shartlarini o'zgartirish) tartibi

1. Kredit restrukturizatsiyasining asosiy turlari:

- Muddatni uzaytirish (prolongatsiya).
- Foiz stavkalarini qayta ko'rib chiqish.
- Kredit ta'tillari. Asosiy qarz va/yoki foiz to'lovlarini ma'lum muddatga to'xtatish. Bunda foizlar hisoblanishi davom etadi.
- Jarima va penyalarni kamaytirish yoki hisobdan chiqarish. Jarima sanksiyalarini qisman yoki to'liq kamaytirish.
- To'lovni kechiktirish. Dekret ta'tilidagi ayollar uchun 10 oygacha, shuningdek boshqa holatlarda bir yilgacha muddatga taqdim etiladi. Foizlar hisoblanishi davom etadi.
- Restrukturizatsiyaning boshqa shakllari. Xorijiy valyutadagi to'lovlar grafigini to'g'irlash (korrektirivoka), kredit ta'minotini qayta ko'rib chiqish, Bank bilan kelishilgan boshqa o'zgarishlar.

2. Restrukturizatsiya taqdim etish shartlari:

- Grafikni ijro etishni imkonsiz qiladigan asoslar mavjud bo'lganda.
- To'lov qobiliyatini tiklash, qaytarishni ta'minlash, shuningdek kredit portfelini sog'lomlashtirishga qaratilgan boshqa holatlar.
- Fors-major holatlari.
- Maqsad: to'lov qobiliyatini tiklash (shunchaki to'lovni kechiktirish vositasi emas).

3. Restrukturizatsiya uchun asoslar:

- **Og'ir hayotiy vaziyatlar.** Qarz oluvchi yoki asosiy xodimlarning (Yuridik shaxslar uchun) og'ir kasalligi/jarohati, nogironlik, oila a'zosining kasalligi tufayli parvarishga muhtojlik, yaqinlarning vafoti, ish yo'qotish (2 oydan ortiq).
- **Moliyaviy qiyinchiliklar.** Daromadlarning pasayishi/daromad manbaini yo'qotish (ketma-ket 2 oydan ortiq), dekretga chiqish, bozor omillari (talabning tushishi), operatsion uzilishlar (aktivlarning buzilishi), regulyator omillari (sanksiyalar, litsenziyaning chaqirib olinishi).
- **Fors-major holatlari.** Qarz oluvchiga bog'liq bo'lmagan, majburiyatlarni bajarishni imkonsiz qiladigan hodisalar. Bularga tabiiy ofatlar, iqtisodiy inqirozlar, mulkni yo'qotish (noqonuniy harakatlar yoki ofat tufayli) va O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq fors-major deb tan olingan boshqa holatlar kiradi.
- **Boshqa holatlar.** Qarz oluvchining to'lov qobiliyatini tiklashni talab qiluvchi holatlar, shuningdek kredit qaytarilishini ta'minlashga qaratilgan boshqa choralar.

4. Tasdiqlash uchun zaruriy hujjatlar:

- Daromadlar to'g'risida ma'lumotnomalar, soliq deklaratsiyalari, hisobraqamdan ko'chirmalar;
- Tibbiy ma'lumotnomalar, mehnat daftarchasi/ishdan bo'shatish haqida buyruqlar;
- Tug'ilganlik haqida guvohnomalar, vasiylik hujjatlari;
- Davlat organlari yoki O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining (SSP) Favqulodda vaziyatlar/Fors-major haqidagi rasmiy xabarnomalari.

5. Barcha hujjatlar asl nusxada yoki tasdiqlangan nusxada taqdim etilishi shart.

6. Bank kredit restrukturizatsiyasi asoslarini tasdiqlash uchun qo'shimcha hujjatlarni so'rash huquqiga ega.

7. Restrukturizatsiyaga ariza berish jarayoni:

- **Qayerda:** Bank ofisida (yozma ravishda) yoki mobil ilova orqali (FaceScan);

- **Nima:** Bank tomonidan talab qilinadigan shaklidagi ariza + qo‘shimcha kelishuv + tasdiqlovchi hujjatlar;
- **Muhim:** Sabablari, istalgan to‘lov miqdori va to‘lov qobiliyatini tiklash muddatini ko‘rsatish.

8. Arizani ko‘rib chiqish va rad etish asoslari:

Ko‘rib chiqish uchun asoslar:

- To‘lov qobiliyatining pasayishi;
- Hujjatlarning muvofiqligi;
- Moliyaviy intizom (qarz oluvchi avval kredit majburiyatlarini bajargan va moliyaviy intizomni namoyon etgan).

Rad etish uchun asoslar:

- Qisqa muddatli qiyinchiliklar;
- To‘liq bo‘lmagan hujjatlar;
- Muntazam buzilishlar.

9. Bank qarori to‘g‘risida xabardor qilish:

- **Kanallar:** Bank ofisi (qog‘ozda), ilova (Push), SMS yoki E-mail (variantlardan biri);
- **Rad etish:** Sabablari tushuntirilgan holda xabarnoma yuboriladi (yozma yoki Push orqali).

**«ANOR BANK» AJ
Boshqaruvining 2026-yil 16 yanvardagi
4-sonli bayonnomasi bilan
«TASDIQLANGAN»**

**"ANOR BANK" AJDA
YURIDIK VA JISMONIY SHAXSLARGA AJRATILGAN KREDITLARNI
RESTRUKTURIZATSIYA QILISH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI
REGLAMENT**

Toshkent 2026-y.

MUNDARIJA:

I-BOB	UMUMIY QOIDALAR
II-BOB	MAQSAD VA VAZIFALAR
III-BOB	ATAMA VA TA'RIFLAR
IV-BOB	KREDITLARNI RESTRUKTURIZATSIYA QILISH TURLARI VA ASOSLARI
V-BOB	KREDITNI RESTRUKTURIZATSIYA QILISH TO'G'RISIDA QAROR QABUL QILISH
VI-BOB	KREDITNI RESTRUKTURIZATSIYA QILISHDA HUJJATLARNI RASMIYLASHTIRISH TARTIBI
VII-BOB	ICHKI NAZORAT QOIDALARIGA RIOYA QILISH VA KORRUPSIYAGA QARSHI SIYOSAT
VIII-BOB	YAKUNIY QOIDALAR

1-ilova

2-ilova

3-ilova

4-ilova

5-ilova

I-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1.1 Mazkur Reglament "ANOR BANK" AJda yuridik va jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarni restrukturizatsiya qilish tartibi to'g'risida bo'lib (keyingi o'rinlarda "Reglament" deb yuritiladi), yuridik va jismoniy shaxslarga berilgan kreditlarni restrukturizatsiya qilish (kredit shartnomasiga o'zgartirishlar kiritish) bilan bog'liq harakatlar tartibini belgilaydi.

1.2 Ushbu Reglament O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining "Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklari faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risida"gi Qarori, "ANOR BANK" AJ (keyingi o'rinlarda "Bank" deb yuritiladi) Ustavi, Bankning Kredit siyosati, Bankning yuridik va jismoniy shaxslarga kredit berishni tartibga soluvchi ichki qoidalar hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa me'yoriy hujjatlari bilan tartibga solinadi.

II-BOB. MAQSAD VA VAZIFALAR

2.1 Ushbu Reglamentning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- mijozlarning to'lov qobiliyatini tiklash;
- kredit portfeli sifatining yomonlashuvini oldini olish;
- kreditlar bo'yicha ehtimoliy zararlar uchun zaxiralarni minimallashtirish.

2.2 Mazkur Reglamentning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- yuridik va jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar bo'yicha restrukturizatsiya qilish jarayonini tashkil etishda yagona tartib-qoidalarini joriy qilish;
- mijozlarning kreditlarni restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi arizalarini qabul qilish, ko'rib chiqish va amalga oshirishda Bank tarkibiy bo'linmalarining o'zaro hamkorlik qilishining yagona tartibini belgilash;
- bank va sotuv ofislari xodimlarini yuridik va jismoniy shaxslarga berilgan kreditlarni restrukturizatsiya qilish bo'yicha uslubiy qo'llanma bilan ta'minlash;
- amaldagi qonun hujjatlari va Bankning ichki qoidalarini talablariga rioya etilishini, shu jumladan kredit portfeli sifatini nazorat qilish va kredit xatarlarini kamaytirishga qaratilgan choralarni ta'minlash va tadbiq etish;
- mijozning (Qarz oluvchining) moliyaviy holatini tahlil qilish va Bank xatarlarini baholash asosida restrukturizatsiya qilish bilan bog'liq qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish.

III-BOB. ATAMA VA TA'RIFLAR

3.1 Mazkur Reglamentda quyidagi ta'riflardan foydalanilgan.

Mijoz/Qarz oluvchi – Bankdan kredit (kredit, bo'lib to'lash kartasi, lizing va hokazo) olgan yuridik va jismoniy shaxs.

SO - Bankning sotuv ofislari.

MBX – Masofaviy bank xizmati – mijozlar uchun Bankning mobil ilovasi.

Kreditlarni monitoring qilish bo'limi – muddati o'tgan qarzlarni undirish va garov ta'minotini nazorat qilish bilan shug'ullanadigan Bank tuzilmasi.

Kreditlarni monitoring qilish bo'limi xodimi – muddati o'tgan qarzlarni undirish va garov ta'minotini nazorat qilish bilan shug'ullanuvchi SO xodimi.

Muddati o'tgan qarzдорlik – mijoz (qarz oluvchi) tomonidan Bank oldidagi moliyaviy majburiyatlar bajarilmagani (yoki lozim darajada bajarilmagani) natijasida yuzaga kelgan, to'lanmagan summa. Agar to'lov tegishli kredit shartnomasida belgilangan muddat va shartlarda

Bank hisobvarag'iga kelib tushmagan bo'lsa, bu asosiy qarz (kredit), hisoblangan foizlar va (yoki) jarima (penya) summasida ifodalanadi.

Murojaat – mijozning (yoki uning vakilining tasdiqlovchi hujjatlar bilan) Bankka og'zaki, yozma yoki elektron shaklda yuborgan, kreditni qayta tuzilmalashtirish haqidagi arizasi, shikoyati yoki taklifi.

ELMA va CAMUNDA – Bankning BPM tizimi bo'lib, mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish va mijozlarning shaxsiy ma'lumotlari hamda kreditlari to'g'risidagi axborotlarni yuritish uchun mo'ljallangan.

Kreditni restrukturizatsiya qilish – moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar yoki fors-major holatlari yuzaga kelganda qarz oluvchining majburiyatlarini bajarishini yengillashtirish maqsadida amaldagi kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (to'lovlar jadvali, foiz stavkasi, kredit muddatini o'zgartirish, imtiyozli davr berish va boshqalar).

Avtomatlashtirilgan bank tizimi (ABT) – bank operatsiyalarini avtomatlashtirish uchun qo'llaniladigan dasturiy majmua.

Moliyaviy sog'lomlashtirish bo'limi (MSB) – Bankning jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzlar bilan ishlash va ularni qayta tuzilmalashtirish uchun mas'ul bo'lgan tuzilmasi.

Yuridik shaxslarning muammoli aktivlari bilan ishlash departamenti – Bankning yuridik shaxslarga berilgan kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzlar bilan ishlash va ularni qayta tuzilmalashtirish uchun mas'ul bo'lgan tuzilmasi.

Restrukturizatsiya qilish uchun mijozlar bazasi (baza) – Tahlil va hisobot boshqarmasi tomonidan shakllantirilgan, jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar bo'yicha to'lovlarni 60 kundan ortiq kechiktirilgan to'lovlar yuzasidan anketalar ro'yxati. Unda qaysi anketalarda kreditni restrukturizatsiya qilish yoki qayta moliyalashtirish imkoniyati mavjudligi, qanday foiz stavkasi qo'llanilishi ko'rsatilgan (muddat uzaytirish va yillik foiz stavkasini belgilash penya mavjudligi, 29801-hisobvara q bo'yicha aylanma summasi, mijozning karta aylanmasi summasi, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga ajratma mavjudligi kabi omillarga bog'liq bo'lishi mumkin). Ushbu baza har oyning 15-sanasi dan keyin shakllantiriladi va mikro kreditlarni restrukturizatsiya qilish uchun qo'llanilishi mumkin, restrukturizatsiya qilish bo'yicha individual yondashuv holatlari bundan mustasno. Ushbu bazaga Masofaviy undirish departamenti xodimlarining undirish bo'yicha suhbat i chog'ida, shuningdek kreditlar monitoringi bo'limlari xodimlarining tekshiruvi paytida kreditni restrukturizatsiya qilishga qiziqish bildirgan va UDEVS Bank dasturida tegishli belgi bilan qayd etilgan mijozlar kiritilishi mumkin. Bazani tasdiqlash va unga kreditlarni kiritish vakolatli organning ijobiy qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Vakolatli organ - Muammoli aktivlar qo'mitasi, Bank Boshqaruvi, Bank Kuzatuv kengashi.

Anketa So'rovnoma - kredit bitimining elektron pasporti, mijozning murojaat qilish bosqichida yaratilgan va Qarz oluvchi, kreditlash shartlari, to'lov jadvali, foiz stavkasi, garov ta'minoti va aniq kredit shartnomasi bilan bog'liq boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olgan noyob tizimli obyektidir.

Korporativ sotuvlar va hamkorlik dasturi bo'limi - Bankning yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kreditlar berish, shuningdek, ushbu toifadagi mijozlarga berilgan kreditlarni undirish bilan shug'ullanadigan tarkibiy bo'linmasidir.

MU - Masofaviy undirish, Masofaviy undirish departamenti xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Reklama va PR bo'limi - Bankning Bosh ofisidagi tarkibiy bo'linma bo'lib, Bankning mobil ilovasida PUSH xabarnomasini yuborish uchun mas'uldir.

Tashqi IT-tizimlar boshqarmasi - Bank Bosh ofisidagi SMS-xabarlarini yuborish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linmadir.

MBX va CRM- tizimlarini qo'llab-quvvatlash hamda ma'muriylashtirish bo'limi – SMS-xabarni jo'natish uchun mas'ul bo'lgan Bank Bosh ofisidagi tarkibiy bo'linma.

UDEVS - muddati o'tgan qarzlarini undirish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan, "UDEVS" MCHJ kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan va qo'llab-quvvatlanadigan dasturiy mahsulot. Tizim quyidagilarni amalga oshirishni ta'minlaydi: boshqarish va yo'naltirish (undirish biznes-jarayonlarini avtomatlashtirish va kredit portfelini xodimlar o'rtasida taqsimlash), o'zaro aloqalarni ro'yxatga olish (mijozlar bilan aloqalarning to'liq tarixini qayd etish va saqlash, shu jumladan xodimlarning harakatlarini hisobga olish (muzokaralar natijalari bo'yicha izohlar, to'lov va'dalarini qayd etish, mijozlarning so'rovlarini hisobga olish)), sayyor faoliyatni nazorat qilish (xodimlarning joylashuvini kuzatish, uchrashuvlar faktini tasdiqlash (geopozitsiyalash), sayyor tadbirlar davomida olingan fotomateriallarni saqlash), tahlil va hisobot (undirish jarayonlarining samaradorligi bo'yicha statistik va operatsion hisobotlarni shakllantirish) va boshqalar.

Dasturning funksional imkoniyatlari biznes talablari va texnologik jarayonlarning o'zgarishiga qarab kengaytirilishi va to'ldirilishi mumkin.

IV-BOB. KREDITLARNI RESTRUKTURIZATSIYA QILISH TURLARI VA ASOSLARIB

4.1 Bankda kreditni restrukturizatsiya qilishning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

4.1.1 Kreditni to'lash muddatini uzaytirish (cho'zish). Kreditni to'lash muddati uzaytirilganda (cho'zilganda), asosiy qarz va/yoki foizlarni to'lash muddati o'zgaradi. Bu Qarz oluvchining oylik to'lovini kamaytirishga imkon beradi, biroq kreditdan foydalanish muddati uzayganligi sababli foizlar bo'yicha ortiqcha to'lovning umumiy summasi oshadi.

4.1.2 Kredit foiz stavkalarini qayta ko'rib chiqish. Foiz stavkalari qayta ko'rib chiqilganda, ular vaqtincha pasaytiriladi yoki Qarz oluvchining moliyaviy holatiga qarab moslashtiriladi. Bu Qarz oluvchiga moliyaviy yukni kamaytirish va to'lovlarni kechiktirmaslik imkonini beradi. Natijada kreditning umumiy summasi va oylik to'lovlar miqdori ham kamayadi.

4.1.3 Kredit ta'tillari. Kredit ta'tillarida ma'lum muddat davomida asosiy qarz va/yoki foizlarni to'lash kechiktiriladi. Biroq, kredit ta'tillari davri uchun foizlar odatda hisoblanishda davom etadi.

4.1.4 Kredit bo'yicha kechiktirilgan to'lovlar uchun jarimalar va penyalarni kamaytirish yoki bekor qilish. Jarimalar va penyalar kamaytirilganda yoki bekor qilinganda, to'lovlar jadvalini buzganlik uchun hisoblangan jarima sanksiyalari qisman yoki to'liq kamaytiriladi.

Hisoblangan neustoykaning bekor qilinishi ham Qarz oluvchining umumiy qarzini kamaytirishga yordam beradi.

4.1.5 To'lovni kechiktirish. Homiladorlik va tug'ish ta'tilida bo'lgan ayollar uchun to'lovni kechiktirish 10 (o'n) oygacha beriladi. Bunday kechiktirish boshqa holatlarda bir yilgacha va mijozlarning boshqa toifalari uchun ham berilishi mumkin. Biroq, to'lov vaqtincha kechiktirilganda, kechiktirish davri uchun foizlar odatda hisoblanishda davom etadi.

4.1.6 Restrukturizatsiya qilishning boshqa shakllari:

- chet el valyutasidagi to'lovlar jadvaliga o'zgartirish kiritish;
- kredit ta'minotini qayta ko'rib chiqish;
- Bank bilan kelishilgan, Bankning ichki qoidalariga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga mos keladigan boshqa o'zgartirishlar.

4.2 Yuridik va jismoniy shaxslarning kredit majburiyatlari faqat to'lov jadvali bo'yicha majburiyatlarni o'z vaqtida bajarishga imkon bermaydigan asoslar mavjud bo'lganda va moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan taqdirdagina qayta tuzilishi lozim. Restrukturizatsiya qilish Qarz oluvchining to'lov qobiliyatini tiklash uchun mo'ljallangan va haqiqiy zarurat bo'lmaganda kechiktirish vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin emas. Bu holat tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishi shart.

4.3 Bank quyidagi turdagi qiyinchiliklar yuzaga kelganda Qarz oluvchiga berilgan kreditlarni restrukturizatsiya qilishning bir yoki bir necha turini amalga oshirishi mumkin:

4.3.1 Murakkab hayotiy vaziyatlar.

- majburiyatlarni bajarishni obyektiv ravishda qiyinlashtiradigan hayotiy vaziyatlar yuzaga kelganda restrukturizatsiya qilish;
- qarz oluvchi yoki qarz oluvchi yuridik shaxs bo'lsa uning mansabdor shaxslari (yuridik shaxs faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy xodimlar) uzoq muddatli davolanish yoki reabilitatsiyani talab qiladigan og'ir kasallikka chalinishi, jiddiy jarohat olishi, nogiron bo'lib qolishi, va/yoki uning oila a'zolari doimiy parvarish yoki qimmatbaho davolanishni talab qiladigan og'ir kasallikka chalinishi, bu esa Qarz oluvchining daromad darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.
- qarz oluvchining (jismoniy shaxsning) kamida 2 (ikki) oy muddatga ishini yo'qotishi yoki vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotishi.
- oilaviy majburiyatlarning sezilarli darajada oshishi (keksa qarindoshlarni parvarish qilish).
- qarindoshlarning qaramog'iga o'tishi yoki yaqin kishilarining vafot etishi.

4.3.2 Moliyaviy qiyinchiliklar.

Agar Qarz oluvchi ko'rsatilgan moliyaviy qiyinchiliklar tufayli ketma-ket ikki va undan ortiq kalendar oy davomida kredit majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishga qodir bo'lmasa, restrukturizatsiya qilish imkoniyatini taqdim etish:

- qarz oluvchining daromadlari barqaror pasayishi yoki daromad manbaining yo'qolishi (ishsiz qolish yoki ish haqining kamayishi), shuningdek, qo'shimcha daromad manbalarining yo'qolishi: masalan, katta miqdordagi dividendlar, omonatlar bo'yicha sezilarli foizlar, ijaraga berilgan uy-joy to'lovlari va boshqalar;
- vaqtincha mehnatga layoqatsizlik yoki ish haqining qisqarishi;
- farzand tug'ilishi va bola parvarish ta'tiliga chiqish, natijada moddiy ta'minot darajasining pasayishi va xarajatlarning yangi turi paydo bo'lishi;
- shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga to'sqinlik qiluvchi boshqa obyektiv holatlar;

- bozor va tashqi omillar (qarz oluvchi ishlab chiqargan xizmatlar va tovarlarga talabning yo'qolishi, narxlar konyunkturasi o'zgarishi, raqobatchilarning xatti-harakatlari), operatsion va ichki omillar (asosiy aktivning (uskunalar, ko'chmas mulk) yo'qolishi va/yoki ishdagi nosozliklar, ta'minot zanjirining uzilishi/yo'qolishi), tartibga solish va huquqiy omillar (litsenziyaning bekor qilinishi yoki muddati tugashi, sanksiyalar yoki savdo cheklovlarining joriy etilishi, qonunchilikdagi o'zgarishlar)

4.3.3 Fors-major holatlar

Qarz oluvchiga bog'liq bo'lmagan, shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishni imkonsiz qiladigan va/yoki qisman bajarishga ta'sir ko'rsatadigan (bevosita uning faoliyatiga taalluqli) hodisalar restrukturizatsiya qilish uchun asos bo'lishi mumkin:

- tabiiy ofatlar va favqulodda vaziyatlar.
- iqtisodiy yoki ijtimoiy inqirozlar.
- g'ayriqonuniy xatti-harakatlar tufayli mol-mulkning yo'qotilishi yoki - O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq fors-major deb tan olingan boshqa holatlar.

4.3.4 Qarz oluvchining to'lov qobiliyatini tiklashni talab etadigan boshqa vaziyatlar, shuningdek kreditning qaytarilishini ta'minlashga yo'naltirilgan qo'shimcha choralar.

4.4 Restrukturizatsiya qilish asoslarini tasdiqlash uchun Qarz oluvchi Bankka o'zining moliyaviy, hayotiy va fors-major holatlarining haqiqiy ahvolini aks ettiruvchi hujjatlarni taqdim etishi kerak. Masalan:

- qarz oluvchining daromadlari haqidagi ma'lumotnomalar (ish haqi, tadbirkorlik faoliyati, ijtimoiy to'lovlar va boshqalar);
- soliq deklaratsiyalari yoki boshqa rasmiy moliyaviy hisobotlar;
- mablag'lar harakati ko'rsatilgan bank ko'chirmalari;
- vaqtincha mehnatga layoqatsizlik to'g'risidagi hujjatlar (tibbiy ma'lumotnomalar);
- qarz oluvchi yoki uning oila a'zolarining og'ir kasalliklari haqidagi tibbiy ma'lumotnomalar;
- mehnat shartnomasining bekor qilinganligi yoki kamida 2 (ikki) oy muddatga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik to'g'risidagi hujjatlar;
- oilaviy majburiyatlarning sezilarli darajada oshganligini tasdiqlovchi hujjatlar (bolalarning tug'ilganlik guvohnomalari, vasiylik hujjatlari va boshqalar);
- davlat organlarining favqulodda vaziyatlar, tabiiy ofatlar to'g'risidagi rasmiy xabarnomalar;
- iqtisodiy yoki ijtimoiy inqirozlarni, milliy valyutaning keskin qadrsizlanganligini tasdiqlovchi hujjatlar;
- og'ir hayotiy vaziyatlarni aks ettiruvchi, shuningdek rasmiy va fors-major to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq deb e'tirof etilgan boshqa hujjatlar.
- O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan yengib bo'lmay kuch (fors-major) holatlari yuzaga kelganligi to'g'risidagi tasdiq (O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi to'g'risida"gi 2018-yil 9-iyuldagi O'RQ-483-sonli Qonuni, 9-moddasi).

4.5 Barcha hujjatlar asl nusxada yoki tasdiqlangan nusxada taqdim etilishi shart.

4.6 Bank kreditni restrukturizatsiya qilish asoslarini tasdiqlash uchun qo'shimcha hujjatlarni so'rab olishga haqli.

4.7 Bankka taqdim etilgan hujjatlar Qarz oluvchining kredit yig'majildida qayd etilishi va Qarz oluvchining kreditini restrukturizatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilish uchun asos bo'lishi kerak.

V-BOB. KREDITNI RESTRUKTURIZATSIYA QILISH TO'G'RISIDA QAROR QABUL QILISH

5.1 Kreditni restrukturizatsiya qilish masalalarini ko'rib chiqish va qaror qabul qilish Bankning Muammoli aktivlar qo'mitasi vakolatiga kiradi.

5.2 Bankning Muammoli aktivlar qo'mitasi a'zolari quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

- qaror Qo'mita a'zolari tomonidan to'liq qabul qilinib, ushbu qarorni bajarish uchun Bankning mas'ul tarkibiy bo'linmalari tayinlanadi;
- hujjatlar qayta ishlash uchun qaytariladi;
- barcha a'zolar qarshi ovoz beradi;
- materiallar Bank Boshqaruvi yoki Kuzatuv kengashi a'zolariga ko'rib chiqish uchun yuboriladi.

5.3 Agar restrukturizatsiya qilish masalasi bank mahsuloti pasporti shartlaridan tashqariga chiqsa, yakuniy qaror qabul qilish Bank Boshqaruvining vakolatiga kiradi.

5.4 Agar kreditni restrukturizatsiya qilish masalasi bank bilan aloqador shaxsga tegishli bo'lsa, yakuniy qarorni Bank Kuzatuv kengashi qabul qiladi.

5.5 Restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi qaror alohida tartibda, muayyan Qarz oluvchining vaziyatini hisobga olgan holda yoki mijozlar guruhlariga nisbatan qabul qilinishi mumkin.

5.6 Bankning tegishli vakolatli organining ijobiy qarorini olgandan so'ng, MSB/Yuridik shaxslarning muammoli aktivlari bilan ishlash departamenti xodimi uni ijro etish uchun Sotuvlarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi (SQQB)ga yuboradi.

5.7 Kreditlarni restrukturizatsiya qilish masalalari bo'yicha arizalarni ko'rib chiqish ular Bankka kelib tushgan kundan boshlab o'n besh ish kunidan kechiktirmay, qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilgan hollarda esa bir oygacha bo'lgan muddatda amalga oshiriladi.

Murojaatlarni ko'rib chiqish uchun tekshiruv o'tkazish, qo'shimcha materiallarni talab qilish yoki boshqa choralar ko'rish zarur bo'lgan hollarda, ularni ko'rib chiqish muddatlari istisno tariqasida Bank rahbari tomonidan ariza beruvchini xabardor qilgan holda bir oydan ko'p bo'lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

VI-BOB. KREDITNI RESTRUKTURIZATSIYA QILISHDA HUJJATLARNI RASMIYLASHTIRISH TARTIBI

6.1 Kreditni restrukturizatsiya qilish uchun Qarz oluvchi yoki uning ishonchli vakili (tasdiqlovchi hujjatlar bilan) Bankka yoki hududiy SOga murojaat qilishi lozim. Buning uchun Qarz oluvchi Bank tomonidan talab qilinadigan shaklidagi arizani (ushbu Reglamentga 1-ilova (jismoniy shaxslar uchun) va 2-ilova (yuridik shaxslar uchun)) to'ldirishi kerak. Unda murojaat sababi, to'lov qobiliyatini tiklashning rejalashtirilgan muddati va restrukturizatsiya qilishning maqbul variantlari ko'rsatilishi, hamda qo'shimcha kelishuv (ushbu Reglamentga 4-ilova (jismoniy shaxslar uchun) va 5-ilova (yuridik shaxslar uchun)) ilova qilinishi lozim. Bank

murojaatni ko'rib chiqishi uchun, Qarz oluvchi kreditni qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi arizada oldingi shartlarda har oylik to'lovlarni amalga oshira olmasligining barcha holatlari va sabablarini batafsil ko'rsatishi, kreditni qaytarish shartlari o'zgartirilgandan so'ng o'zi uchun maqbul bo'lgan har oylik to'lov miqdorini belgilashi kerak. Murojaat sababi ushbu Reglamentning 3-ilovasida ko'rsatilgan hujjatlar bilan tasdiqlanishi lozim. Bu haqda Bank veb-saytida yoki mobil ilovasida ham tanishish mumkin.

Qarz oluvchi kreditni restrukturizatsiya qilish uchun quyidagi yo'llar bilan ariza berishi mumkin:

- Sotuv ofisiga - imzo va muhr izi qo'yilgan yozma ravishda (muhr mavjud bo'lsa yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun).
- Bankning mobil ilovasi orqali - identifikatsiya bilan elektron shaklda (FACE SCAN).

6.2 Mijoz Bankka yoki uning SOga murojaat qilganda, ariza berish shaklidan qat'i nazar (yozma ravishda/mobil ilova orqali), kredit monitoringi bo'limi/korporativ sotuvlar va hamkorlik dasturi bo'limi xodimi Mijozni kreditni restrukturizatsiya qilishning mumkin bo'lgan shartlari va uning kelgusi to'lovlarga ta'siri bilan tanishtiradi, shuningdek kredit bo'yicha dastlabki to'lovlar jadvalini ko'rsatadi.

6.3 Qarz oluvchi tomonidan ariza yozma ravishda topshirilgan taqdirda, Kredit monitoringi bo'limi/Korporativ sotuvlar va hamkorlik dasturi bo'limi xodimi arizaning to'g'ri to'ldirilganligini tekshiradi, zarur ma'lumotlarni, shuningdek arizadagi imzo va muhrni imzo namunasi bilan, jismoniy shaxslar uchun esa pasport/ID kartadagi imzo bilan solishtiradi.

6.4 SOning kredit monitoringi bo'limi/korporativ sotuvlar va hamkorlik dasturi bo'limi xodimi arizaning skanerlangan nusxasini tayyorlaydi, Mijozni yozilgan ariza bilan birga suratga oladi (jismoniy shaxslar uchun), Markaziy filial operatsiyalari bo'limi/Yuridik shaxslarning muammoli aktivlari bilan ishlash departamentiga topshirish uchun hujjatlar to'plamini shakllantiradi.

6.5 Qarz oluvchi (jismoniy shaxslar) tomonidan mobil ilova orqali ariza berilganda, Markaziy filial operatsiyalari bo'limi xodimi kelib tushgan arizalarni tekshiradi, muvaffaqiyatli identifikatsiyadan o'tgan mijozlar ro'yxatini shakllantiradi va ularni keyinchalik ko'rib chiqish uchun Umumiy servis provayderiga yuborilishini ta'minlaydi.

6.6 Kreditlar monitoringi bo'limi/Korporativ sotuvlar va hamkorlik dasturi bo'limi xodimi mijoz tomonidan ariza yozma ravishda topshirilgandan so'ng bir kundan kechiktirmay to'plangan materiallarni (Ariza skan nusxasi, Qarz oluvchining fotosurati va boshqa hujjatlar) MSB/Yuridik shaxslarning muammoli aktivlari bilan ishlash departamentiga yuboradi.

6.7 MSB /Yuridik shaxslarning muammoli aktivlari bilan ishlash departamenti xodimi Kreditlar monitoringi bo'limi/Korporativ sotuvlar va hamkorlik dasturi bo'limidan olingan barcha arizalar va ro'yxatlarni shakllantiradi, shuningdek Bankning mobil ilovasi orqali ariza topshirgan (muvaffaqiyatli identifikatsiyadan o'tgan) Qarz oluvchilarning ma'lumotlarini ELMA dan oladi.

6.8 MSB /Yuridik shaxslarning muammoli aktivlari bilan ishlash departamenti xodimi barcha taqdim etilgan hujjatlarni ularning to'g'riligi, ma'lumotlarning to'liqligi va restrukturizatsiya qilish asoslariga (moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar, fors-major holatlari va boshqalar) muvofiqligi yuzasidan tekshiruvdan o'tkazadi.

6.9 MSB /Yuridik shaxslarning muammoli aktivlari bilan ishlash departamenti xodimi Ariza beruvchining ma'lumotlarini Mijozlarning ichki ma'lumotlar bazasi bilan solishtiradi, joriy to'lov qobiliyati va muddati o'tgan qarzdorlik mavjudligini tahlil qiladi.

Barcha hujjatlar ko'rsatilgan asoslar bilan tasdiqlangan bo'lishi shart (daromadlar to'g'risidagi ma'lumotnomalar, tibbiy ma'lumotnomalar, fors-major holatlari to'g'risidagi hujjatlar va boshqalar).

Tahlillar asosida MSB /Yuridik shaxslarning muammoli aktivlari bilan ishlash departamenti xodimi tomonidan dastlabki to'lovlar jadvali tuziladi (Dastlabki to'lovlar jadvali yakka tartibda ko'rib chiqilgan qarzdorlar, shuningdek, mobil ilova orqali identifikatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan mijozlar uchun tuziladi. Ommaviy qayta tuzilish amalga oshirilayotgan kreditlar uchun jadval tuzilmaydi) kredit qayta tuzilgandan so'ng, barcha nazarda tutilgan o'zgartirishlarni o'z ichiga oladi va uni Bankning Vakolatli organi tomonidan ko'rib chiqish va qaror qabul qilish uchun yuboradi.

6.11 MSB /Yuridik shaxslarning muammoli aktivlari bilan ishlash departamenti xodimi tomonidan o'tkazilgan tahlil asosida umumlashtirilgan anketalar ro'yxati keyingi qayta ishlash uchun shakillantiriladi, hujjatlarning elektron to'plami esa MSB ga hujjatlarning asl nusxalari taqdim etilgunga qadar saqlanadi. (Hujjatlarning elektron to'plami MSBga biriktirilgan elektron tashuvchida (kompyuterda) saqlanadi).

6.12 Qarz oluvchining kreditni restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi arizasini ko'rib chiqish asoslari:

- to'lov qobiliyatining pasayishi hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lsa.
- zarur hujjatlar taqdim etilgan va tekshiruv talablariga muvofiq bo'lsa (moliyaviy hisobotlar, ijtimoiy yoki oilaviy holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar, fors-major holatlarini tasdiqlovchi hujjatlar va boshqalar).
- ilgari kredit majburiyatlarini bajargan va moliyaviy intizomni saqlagan bo'lsa.

6.13 Qarz oluvchining kreditni restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi arizasini rad etish asoslari:

- vaqtinchalik yoki qisqa muddatli moliyaviy qiyinchiliklar (masalan, daromadning 1 oyga yoki 20-30% ga pasayishi).
- hujjatlar to'liq taqdim etilmagan yoki tasdiqlovchi ma'lumotlar mavjud bo'lmasa.
- kredit majburiyatlarini muntazam ravishda buzgan yoki moliyaviy intizomsizlik ko'rsatgan bo'lsa.
- moliyaviy va huquqiy shart-sharoitlar restrukturizatsiya qilish uchun yetarli bo'lmasa.

Restrukturizatsiya qilish nazarda tutilmagan arizalar ko'rib chiqilmasdan qoldiriladi.

6.14 Qarz oluvchi qabul qilingan qaror to'g'risida quyidagilar orqali xabardor qilinadi:

- SO orqali (yozma ravishda);
- mobil ilova (push-xabarnoma/shaxsiy kabinet);
- zarur bo'lganda SMS/e-mail orqali.
- MU qo'ng'iroqlari.

Rad etilgan taqdirda mijozga rad etish sabablari ko'rsatilgan xabarnoma yozma ravishda yoki PUSH-xabarnoma orqali yuboriladi.

6.15 Bank (Bankning vakolatli organi) bir tomonlama tartibda (Qarz oluvchining ishtirokisiz) kreditni restrukturizatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

6.16 Mijozlar bo'yicha kreditni restrukturizatsiya qilish nazarda tutilgan, biroq Mijozlarning o'zlari mobil ilova orqali identifikatsiyadan o'tmagan va restrukturizatsiya qilish uchun ariza topshirmagan mijozlar ro'yxati MSB xodimi tomonidan bazadan anketalar ro'yxati shakllantiriladi.

6.17 Bir tomonlama restrukturizatsiya qilishda MSB xodimi hujjatlarni rasmiylashtiradi va ko'rib chiqish hamda qaror qabul qilish uchun Bankning Vakolatli organiga kiritadi. Bankning Vakolatli organi tomonidan ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, xodim biriktirilgan fayl (foiz stavkasi, asosiy qarzning umumiy qoldig'i ko'rsatilgan holda restrukturizatsiya qilish uchun nazarda tutilgan shakllantirilgan ro'yxat) bilan farmoyish yuboradi. Muddat odatda buyruq chiqarilgan kundan boshlab 36 oygacha uzaytiriladi) Sotuvlarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasiga (SQQB) dasturga o'zgartirishlar kiritish va yangi shartnomani rasmiylashtirish uchun yuboriladi.

6.18 Mijozga ajratilgan kreditlar bir tomonlama (mijozning ishtirokisiz) restrukturizatsiya qilinishida, quyidagilar bilan mijozni xabardor qilinadi:

- Bankning mobil ilovasi;
- SMS-xabar;
- MU qo'ng'iroqlari.

6.19 Arizalar bo'yicha kredit shartnomasiga o'zgartirishlarni rasmiylashtirishda, MSB/Yuridik shaxslarning muammoli aktivlari bilan ishlash departamenti xodimi dasturga o'zgartirishlar kiritish va yangi shartnomani rasmiylashtirish uchun ilova qilingan fayl (foiz stavkasini ko'rsatgan holda restrukturizatsiya qilish uchun ko'zda tutilgan shakllantirilgan ro'yxat) bilan farmoyishni Sotuvlarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi (SQQB) yuboradi.

6.20 Sotuvlarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi (SQQB) bankning dasturiga o'zgartirishlar kiritadi va yangi shartnoma yoki kredit shartnomasiga qo'shimcha kelishuvni rasmiylashtiradi. Sotuvlarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi (SQQB) MSB/Yuridik shaxslarning muammoli aktivlari bilan ishlash departamenti farmoyishi asosida o'zgartirishlar kiritadi va bankning dasturida yangi anketani tasdiqlaydi. Bunga to'lov jadvali, muddati, foiz stavkasi va boshqalarni o'zgartirish kiradi.

6.21 MSB /Yuridik shaxslarning muammoli aktivlari bilan ishlash departamenti xodimi anketalar ro'yxatini, kiritilgan o'zgartirishlar (muddatlar, foiz stavkasi, qarzдорlik) to'g'risida ma'lumot (bildirishnoma, tushuntirish) berish uchun SO (shaxsiy va yozma bildirishnoma), Reklama va PR bo'limi (push-bildirishnomalar), Masofaviy undirish departamenti (qo'ng'iroqlar) va Tashqi masofaviy bank xizmati tizimlari boshqarmasiga (SMS xabarlar) taqdim etadi.

6.21 Barcha hujjatlar Qarz oluvchining kredit yig'majildida va Bank tizimida qayd etiladi hamda ichki audit va tekshirish uchun saqlanadi.

VII-BOB. ICHKI NAZORAT QOIDALARIGA RIOYA QILISH VA KORRUPSIYAGA QARSHI SIYOSAT

7.1 Maxfiylikka rioya qilish. Barcha xodimlar mijozlarning shaxsiy ma'lumotlari maxfiyligini ta'minlashlari shart. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno bo'lib, Mijozning rozilgisiz shaxsiy ma'lumotlarni va Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga uzatish qat'iyan man etiladi.

7.2 Korruptsiyaga qarshi kurashish. Masalalarni ko‘rib chiqishda Bankning mas’ul xodimlari Bankda korruptsiyaga qarshi kurashish va ehtimoliy korruptsiyaviy huquqbuzarliklar faktlari to‘g‘risida ma’lumot olishga qaratilgan Bankning korruptsiyaga qarshi siyosatiga qat’iy amal qilishlari lozim. Lavozim majburiyatlariga muvofiq bajarilgan ish uchun haq talab qilish yoki olish mutlaqo taqiqlanadi.

Korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun xodimlar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

7.3 Xodimlarni o‘qitish. Qarzni undirish jarayoniga jalb etilgan barcha xodimlar maxfiylik, ma’lumotlarni himoya qilish, korruptsiyaga qarshi kurashish siyosati va Mijozlar bilan muomala qilish madaniyati bo‘yicha muntazam ravishda o‘qitilishlari, tegishli bo‘linmalar rahbarlari esa xodimlarni o‘qitish tadbirlarini tashkil etishlari shart.

VIII-BOB. YAKUNIY QOIDALAR

8.1 "ANOR BANK" AJda yuridik va jismoniy shaxslarga berilgan kreditlarni Restrukturizatsiya qilish tartibi to‘g‘risidagi mazkur Reglament Bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

8.2 Ushbu Reglamentga o‘zgartirishlar kiritilgunga qadar Bank tuzilmasiga va tegishli ravishda bo‘linmalar nomlariga o‘zgartirishlar kiritilgan taqdirda, barcha nazarda tutilgan normalar Bank bo‘linmalarining vazifalari va funksiyalariga muvofiq belgilangan normalarni bajarishni zimmasiga olgan bo‘linmalar tomonidan amalga oshiriladi.

8.3 Dasturiy ta‘minot (keyingi o‘rinlarda DT deb yuritiladi) yangilangan, o‘zgartirilgan yoki uning nomi o‘zgartirilgan (shu jumladan, o‘xshash dasturiy ta‘minotga almashtirilgan) hollarda, ushbu Reglamentga tegishli o‘zgartirishlar kiritilgunga qadar, barcha belgilangan normalar va tartib-qoidalar Bankning AT tizimlari arxitekturasiga muvofiq tegishli vazifalar va funksiyalarni bajarish imkoniyatiga ega bo‘lgan DT yordamida amalga oshiriladi.

8.4 Ushbu Reglamentga kiritilgan barcha o‘zgartirish va qo‘shimchalar belgilangan tartibda ko‘rib chiqilishi va Bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlanishi shart.

«ANOR BANK» AJga

Kimdan: [F.I.Sh. to'liq]
Pasport/ID karta: [Seriya va raqami],
[Kim tomonidan va qachon] berilgan
JSHSHIR: [JShShIR raqamingiz]
Yashash manzili: [Manzilingiz]
Telefon raqami: [Telefon raqamingiz]

ARIZA

Men, [F.I.Sh. to'liq], _____ (tegishli kredit mahsuloti yozilishi kerak) № [Shartnoma raqami] [Tuzilgan sana]dagi shartnoma (bundan keyin — Shartnoma) bo'yicha Qarz oluvchiman.

Hozirgacha kreditni to'lash bo'yicha majburiyatlarimni vijdonan bajarib keldim. Biroq, moddiy ahvolim sezilarli darajada o'zgargani sababli, avvalgi shartlar asosida qarzni to'lash imkoniyatidan mahrum bo'ldim.

Moliyaviy ahvolimning yomonlashuvi quyidagi sabablarga ko'ra yuz berdi (keraklisini tanlang yoki vaziyatingizni tasvirlab bering):

(Variant: Ishdan ayrilish): [Sana]dan boshlab mehnat shartnomasining bekor qilinishi va daromad manbaining yo'qolishi. Hozirda bandlik markazida hisobda turibman / faol ravishda ish qidirayman.

(Variant: Daromadning kamayishi): [Sabab: xodimlar sonining qisqartirilishi, to'liqsiz ish kuniga o'tkazilish] munosabati bilan ish haqi darajasining [Foiz]% ga pasayishi.

(Variant: Kasallik): Uzoq muddatli mehnatga layoqatsizlik (o'zimning yoki yaqin qarindoshimning) va davolanish uchun katta xarajatlar qilish zarurati.

(Variant: Oilaviy vaziyat): Farzand tug'ilishi/boquvchining vafot etishi/nikohning bekor qilinishi va aliment to'lash majburiyatining yuzaga kelishi.

(Tavsif):

Ko'rsatilgan faktlarni tasdiqlash uchun tegishli hujjatlarni ilova qilaman.

Hozirgi paytda, majburiy turmush xarajatlari chegirib tashlangandan so'ng, men har oyda kreditni to'lashga yo'naltira oladigan kafolatlangan summa:

[Summa raqamlarda] ([Summa so'z bilan]) so'm.

To'lov muddatining o'tkazib yuborilishining oldini olish (yoki yuzaga kelgan muddati o'tgan qarzdorlikni bartaraf etish) va to'lov qobiliyatimni tiklash maqsadida Bankdan Kredit shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqishni va quyidagi restrukturizatsiya qilish choralari qo'llashni so'rayman (maqbul variantni tanlang):

[] [Soni] oy muddatga "Kredit ta'tillari" (imtiyozli davr) taqdim etilsin, bunda:

To'lovlarni to'liq to'xtatib turish;

YOKI Asosiy qarzni kechiktirgan holda faqat foizlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish.

[] Oylik to'lov miqdorini kamaytirish uchun kredit muddatini [Soni] oyga uzaytirish.

[] Men ko'rsatgan oylik to'lovning maqbul miqdorini hisobga olgan holda to'lov jadvalini o'zgartirish.

Moliyaviy holatim tiklanganidan so'ng, taxminan [Oy va Yil]gacha to'lovlarni to'liq hajmda yoki yangi jadvalga muvofiq davom ettirish majburiyatini olaman.

Masalani tinch yo'l bilan hal etish uchun Bank bilan hamkorlik qilishga tayyorligimni tasdiqlayman.

Ilovalar (hujjatlar nusxalari):

Pasport nusxasi.

Moliyaviy ahvol yomonlashganligini tasdiqlovchi hujjatlar (Mehnat shartnomasi bekor qilinganligi to'g'risidagi yozuvli mehnat daftarchasi / Daromadlar to'g'risidagi ma'lumotnoma / Kasallik to'g'risidagi ma'lumotnoma / Tug'ilganlik/vafot etganlik to'g'risidagi guvohnoma va h.k.). [Boshqa hujjatlar]

_____ «_____» 202__ y.
(sana)

(imzo)

(F.I.O. to'liq)

«ANOR BANK» AJga

Kimdan:

[Firma nomi to'liq]
Firmaning yuridik manzili: [Toshkent
sh.,.....]
Telefon: [direktorning telefon raqami]

ILTIMOSNOMA

Fursatdan foydalanib, "**firma nomi va tashkiliy-huquqiy shakli**" Sizga o'z hurmatini bildiradi va quyidagilar bilan murojaat qiladi.

Vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklar tufayli "**firma nomi va tashkiliy-huquqiy shakli**" [Shartnoma raqami] raqamli [Tuzilgan sana] dagi kredit shartnomasi (bundan keyin - Kredit shartnomasi) bo'yicha to'lovlarni (kechiktirib to'lash) oy muddatga uzaytirish (kechiktirish) imkoniyatini ko'rib chiqishingizni so'raydi.

Shuni ma'lum qilamizki, ko'rsatilgan qiyinchiliklar vaqtinchalik xarakterga ega va kelgusida kredit shartnomasi shartlariga muvofiq kredit majburiyatlarini to'liq hajmda bajarish niyatimizni tasdiqlaymiz.

Hamkorligingiz va tushunishingiz uchun oldindan minnatdorchilik bildiramiz.
Hurmat bilan,
(Mijozning F.I.O., muhri (agar mavjud bo'lsa) va mas'ul shaxslarning imzolari.)

Muddati o'tkazib yuborilishining oldini olish (yoki yuzaga kelgan muddati o'tgan qarzdorlikni bartaraf etish) va to'lov qobiliyatimni tiklash maqsadida, Bankdan Kredit shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqishni va quyidagi restrukturizatsiya choralarini qo'llashni so'rayman (maqbul variantni tanlang):

[] [Miqdor] oy muddatga "Kredit ta'tillari" (imtiyozli davr) taqdim etilsin, bunda:

To'lovlarni to'liq to'xtatib turish;

YOKI Asosiy qarzni kechiktirgan holda faqat foizlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish.

[] Oylik to'lov miqdorini kamaytirish uchun kredit muddatini [Miqdor] oyga uzaytirish.

[] Men ko'rsatgan oylik to'lovning maqbul miqdorini hisobga olgan holda to'lov jadvalini o'zgartirish.

Moliyaviy holat tiklanganidan so'ng, taxminan [Oy va Yil]ga qadar to'lovlarni to'liq hajmda yoki yangi jadvalga muvofiq davom ettirish majburiyatini olaman.

Masalani tinch yo'l bilan hal etish uchun Bank bilan hamkorlik qilishga tayyorligimni tasdiqlayman.

_____ «_____» 202__ y.
(sana)

(imzo va muhr)

(nomi)

Jismoniy shaxslarga berilgan kreditlarni restrukturizatsiya qilish uchun Bankka murojaat qilish uchun tasdiqlovchi hujjatlar ro'yxati

- Qarz oluvchi yoki uning oila a'zolarining vaqtinchalik mehnatga layoqatsizligi va og'ir kasalliklari to'g'risidagi hujjatlar (tibbiy ma'lumotnomalar, tashxis ko'rsatilgan kasallik tarixi yoki ambulator kartadan ko'chirma; kasallik varaqalari, shifokor tavsiyalari);
- Nogironlik guvohnomasi;
- Oilaning kam ta'minlangan ekanligi haqidagi ma'lumotnoma;
- Qarz oluvchining daromadlari to'g'risidagi ma'lumotnoma, mehnat daftarchasidan ko'chirma (ish haqi, tadbirkorlik faoliyati, ijtimoiy to'lovlar va hokazo);
- Oilaviy majburiyatlarning sezilarli darajada oshganligini tasdiqlovchi hujjatlar (tug'ilganlik guvohnomasi, vasiylik hujjatlari va boshqalar);
- Mehnat shartnomasining bekor qilinganligi yoki kamida 2 (ikki) oy davomida vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik to'g'risidagi hujjatlar;
- Favqulodda vaziyatlar, tabiiy ofatlar haqida davlat organlarining rasmiy xabarlari;
- O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan yengib bo'lmaz kuch holatlari (fors-major) yuzaga kelganligi to'g'risidagi tasdiqlash (O'zbekiston Respublikasining 09.07.2018-yildagi "O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi to'g'risida"gi O'RQ-483-sonli Qonuni, 9-modda);
- Iqtisodiy yoki ijtimoiy inqirozlarni, O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasining keskin qadrsizlanganligini tasdiqlovchi hujjatlar;
- Favqulodda hayotiy vaziyatlarni aks ettiruvchi, shuningdek, rasmiy va fors-major to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq deb e'tirof etilgan boshqa hujjatlar.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan kreditlarni restrukturizatsiya qilish uchun Bankka murojaat qilish uchun tasdiqlovchi hujjatlar ro'yxati

- Uskunaning yo'qolganligi va/yoki nosozligini isbotlovchi foto va videolar;
- sodir bo'lgan favqulodda hodisalar to'g'risidagi dalolatnomalar va ma'lumotnomalar;
- mablag'lar harakati ko'rsatilgan bank ko'chirmalari;
- soliq deklaratsiyalari yoki boshqa rasmiy moliyaviy hisobotlar;
- davlat organlarining favqulodda vaziyatlar, tabiiy ofatlar to'g'risidagi rasmiy xabarnomalar;
- O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan yengib bo'lmaz kuch (fors-major) holatlari yuzaga kelganligi to'g'risidagi tasdiq (O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi to'g'risida"gi 09.07.2018-yildagi O'RQ-483-sonli Qonuni, 9-moddasi);
- iqtisodiy yoki ijtimoiy inqirozlarni, O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasining keskin qadrsizlanganligini tasdiqlovchi hujjatlar;

_____ yil _____ dagi _____ raqamli individual shartlarga
QO'SHIMCHA KELISHUV № _____
_____ sh. «___» _____ 202__ y.

"ANOR BANK" AJ, bundan buyon "Bank" deb yuritiluvchi, bir tomondan _____ (lavozimi) "_____" nomidan, _____ yildagi _____-sonli ishonchnoma asosida ish yurituvchi, va ikkinchi tomondan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi _____, pasport\ID-karta seriyasi _____ kim tomonidan berilgan _____ yil, O'zbekiston Respublikasi, _____ ko'chasi, __ uyda ro'yxatdan o'tgan, bundan buyon "Qarz oluvchi" deb yuritiluvchi, Qarz oluvchining moliyaviy yukini yengillashtirish maqsadida _____ yil _____ dagi _____ individual shartlariga (bundan buyon shartnoma deb yuritiladi) ushbu ____-sonli Qo'shimcha kelishuvni (bundan buyon Kelishuv deb yuritiladi) quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. Individual shartlar quyidagi yangi tahrirda bayon qilinsin::

1	Kreditlash maqsadi	
2	Kreditlash shaklo	tiklanmaydigan/tiklanadigan kredit liniyasi (keraklisini tanlang)
3	Kreditni taqdim qilish	<i>Kredit mahsulotiga muvofiq tegishli bandni tanlash lozim!</i> - Kredit (moliyalashtirish) berish qarz oluvchining ssuda hisobvarag'idan "firma nomi" MCHJning bank hisobvarag'iga (hisob-kitob raqamiga) naqd pulsiz shaklda o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi (garovli kreditlar uchun); yoki - Bankda ochilgan debet kartasini to'ldirish orqali (mikroqarz); - Muddatli to'lov kartasi qayta tiklanadigan limit bilan taqdim etiladi. Muddat 48 oy. Limitni tiklash muddati 36 oy, 37-oydan 48-oygacha qaytarish amalga oshiriladi. Qarz mablag'lari bankning Hamkorlik tarmog'idagi tovarlar/xizmatlar uchun muddatli to'lov kartasi va/yoki uning rekvizitlaridan foydalangan holda to'lash orqali beriladi. Agar karta ochilgan kundan boshlab 30 kalendar kun ichida limitning to'liq summasidan foydalanilmasa, bank o'z xohishiga ko'ra mijozning limit summasini bir tomonlama tartibda kamaytirish huquqiga ega (muddatli to'lov kartasi)
4	Kredit summasi (kredit limiti)	
5	Shartnoma amal qilish muddati	Kredit muddati – «___» _____ 20__ yilgacha
	Foiz stavkasi	Foiz stavkasi - asosiy qarz bo'yicha qarzдорlik summasining yillik ___%i;

6	Qarz oluvchining tashabbusi bilan o'zgartirishlar kiritganlik uchun bir martalik komissiya	Bank tariflariga asosan
7	To'lov jadvali turi	(annuitet/differensial) (keraklisini tanlang)
8	Ta'minot	<i>Kredit mahsulotiga mos keladigan bandni tanlash lozim!</i> - Qarz oluvchining O'zbekiston Respublikasi banklaridagi hisobvaraqlari va omonatlariga tushayotgan va/yoki joylashtirilgan pul mablag'larini, jumladan ijaraga berilgan mulk daromadlari, omonat foizlari, ish haqi va boshqa daromadlardan kelib tushayotgan mablag'larni talab qilish huquqi: (summa raqamlar va so'zlar bilan) so'm miqdorida; - (To'liq F.I.Sh.ga) tegishli bo'lgan (kerakli joyga belgi qo'yilsin) ko'char/ko'chmas mulk (avtotransport vositasi bo'lsa rusumi, ishlab chiqarilgan yili, rangi, davlat raqami, ko'chmas mulk bo'lsa manzili, kadastr raqami, umumiy maydoni) (summa raqamlar va so'zlar bilan) so'm miqdorida garovga olingan;
9	Qarzni to'lash majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilmasligi, shuningdek shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilmasligi uchun	Kredit bo'yicha majburiyatni bajarish muddati buzilgan taqdirda, muddati o'tkazib yuborilgan asosiy qarz summasiga kredit bo'yicha belgilangan foiz stavkasidan 2,5 baravar ortiq miqdorda foizlar hisoblanadi. (Foizlar hisoblash, komissiya va neustoyka (jarima, penya) undirish yiliga qarz miqdorining yarmidan oshmasligi kerak);
10	Imtiyozli davr berish	
11	Kredit ta'tillarini taqdim etish	
12	Kredit to'lovlarini kechiktirganlik uchun belgilangan jarima va penyalarni kamaytirish yoki bekor qilish	
13	Kreditning to'liq qiymati	Kredit mahsulotiga muvofiq ravishda tegishli bandni tanlash zarur! - Asosiy qarz va foizlar bo'yicha to'lovlar (garov va mikroqarz uchun) - Mijozning asosiy qarz bo'yicha to'lovlari (bo'lib to'lash kartasi uchun);

2. Ushbu Bitim Tomonlarning har biri uchun rus tilida bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 (ikki) nusxada tuzildi.

3. Tomonlarning yuridik manzillari, imzolari va bank rekvizitlari

BANK
«ANOR BANK» AJ

Toshkent shahri, Yashnobod tumani,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

MFO: 01183
H/r: 29896000900001183001
STIR: 207324986, XXTUT: 64190

Sotuvlar ofisi boshlig'i

«_____»

«_____»

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi

_____,

manzili bo'yicha ro'yhatga olingan

Pasport ma'lumotlari: _____;
Kim tomondan va qachon berilgan

_____.

_____ -son KREDIT SHARTNOMASIGA _____ -sonli
QO'SHIMCHA KELISHUV

_____ sh. _____

_____.202__ y.

"ANOR BANK" aksiyadorlik jamiyati, bundan buyon "Bank" deb yuritiluvchi, 202__ yil _____dagi _____-son ishonchnoma asosida ish yurituvchi _____ (lavozimi) _____ nomidan, bir tomondan, va bundan buyon "Mijoz" deb yuritiluvchi, _____ asosida ish yurituvchi _____ nomidan _____ «_____», ikkinchi tomondan, birgalikda "Tomonlar" deb ataluvchilar, 202__ yil _____.____dagi _____-son Kredit shartnomasi (bundan buyon "Kredit shartnomasi") bo'yicha quyidagilar to'g'risida ushbu qo'shimcha kelishuvni (bundan buyon "Qo'shimcha kelishuv") tuzdilar:

1. Kredit shartnomasining 1.7-bandini quyidagi tahrirda bayon etilsin:

202__ yil _____dagi _____-son Kredit shartnomasiga _____-son ilovaga muvofiq. Imtiyozli davr tugagandan so'ng kreditni teng oylik to'lovlar bilan qaytarish tartibi

2. 202__ yil _____dagi _____-son Kredit shartnomasiga 1-ilova. Asosiy qarzni to'lash jadvali yangi tahrirda bayon etilsin.

3. Ushbu Qo'shimcha kelishuv Kredit shartnomasining ajralmas qismi hisoblanadi. Tomonlar o'rtasida tuzilgan 202__ yil _____.____dagi _____-son Kredit shartnomasining qolgan barcha bandlari o'zgarishsiz qoladi.

4. Qo'shimcha kelishuv Tomonlarning xohish-irodasiga ko'ra rus tilida, teng yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada, har bir tomon uchun bittadan tuzildi.

_____ y.

_____.202__ y.

BANK

«ANOR BANK» AJ

Toshkent shahri, Yashnobod tumani,

Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

h/r: 10301000000001183001

"ANOR BANK" AJda

MFO: 01183

STIR: 207324986, IFUT: 94190

Tel.: +998 _____

MIJOZ

_____ «_____»

Toshkent shahri, _____ tumani,

_____ ko'chasi, uy _____.

H/R: _____

"ANOR BANK" AJda

MFO: _____

STIR: _____